



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024-yil yanvar-noyabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 365 085,4 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 68 724,0 ming AQSH dollariga yoki 23,2 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **365 085,4 (+23,2 %)**

(2023- y.: **296 361,4**)



Saldo

2024- y.: **121 740,4** (2023- y.: **96 462,8**)



Eksport

2024- y.: **243 412,9 (+23,9 %)**

(2023- y.: **196 412,1**)

TSA'dagi ulushi

33,3 %


66,7 %



Import

2024- y.: **121 672,5 (+21,7 %)**

(2023- y.: **99 949,3**)













TSAda eksport hajmi 243 412,9 ming AQSH dollariga (23,9 % ga ko'paydi) va import hajmi 121 672,5 ming AQSH dollariga (21,7 % ko'paydi). Hisobot davrida 121 740,4 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)





Surxondaryo viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (26,8 %), Pokistonda (15,8 %), Turkiyada (13,1 %), XXRda (11,5 %), Afg'onistonda (11,0 %), Qozog'istonda (6,5 %), Germaniyada (3,4 %), Tojikistonda (1,7 %), Eronda (1,4 %) va Hindistonda (1,2 %) qayd etilgan.

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 97 745,2</p> <p>Eksport: 93 922,5 Import: 3 822,6</p> <p> 26,8 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 57 629,8</p> <p>Eksport: 51 274,8 Import: 6 355,0</p> <p> 15,8 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 47 999,8</p> <p>Eksport: 13 826,7 Import: 24 173,2</p> <p> 13,1 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 41 920,8</p> <p>Eksport: 17 085,5 Import: 24 835,3</p> <p> 11,5 %</p>	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 40 263,0</p> <p>Eksport: 36 804,3 Import: 3 458,6</p> <p> 11,0 %</p>
<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 23 627,1</p> <p>Eksport: 12 168,0 Import: 11 459,2</p> <p> 6,5 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 12 581,0</p> <p>Eksport: 449,3 Import: 12 131,7</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 6 080,3</p> <p>Eksport: 5 115,2 Import: 965,0</p> <p> 1,7 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 5 108,4</p> <p>Eksport: 1 750,1 Import: 3 358,3</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 4 345,7</p> <p>Eksport: 310,3 Import: 4 035,3</p> <p> 1,2 %</p>



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Rossiya	68 892,2	24 878,7	97 745,2
	<i>Eksport</i>	28 503,7	18 889,8	93 922,5
	<i>Import</i>	40 388,6	5 988,9	3 822,6
	Pokiston	63 703,6	73 828,2	57 629,8
	<i>Eksport</i>	42 508,7	60 431,7	51 274,8
	<i>Import</i>	21 194,9	13 396,4	6 355,0
	Turkiya	21 432,9	15 970,5	47 999,8
	<i>Eksport</i>	15 686,6	7 177,1	13 826,7
	<i>Import</i>	5 746,2	8 793,4	34 173,2
	XXR	71 846,8	63 703,2	41 920,8
	<i>Eksport</i>	41 892,2	33 344,6	17 085,5
	<i>Import</i>	29 954,6	30 358,6	24 835,3
	Afg'oniston	16 504,4	54 585,3	40 263,0
	<i>Eksport</i>	15 846,4	53 848,6	36 804,3
	<i>Import</i>	658,0	736,7	3 458,6
	Qozog'iston	47 470,8	19 710,7	23 627,1
	<i>Eksport</i>	36 354,4	5 796,2	12 168,0
	<i>Import</i>	11 116,4	13 914,5	11 459,2
	Germaniya	3 783,1	2 476,5	12 581,0
	<i>Eksport</i>	2 063,2	728,2	449,3
	<i>Import</i>	1 719,9	1 748,3	12 131,7
	Tojikiston	11 792,5	10 493,9	6 080,3
	<i>Eksport</i>	2 791,5	3 773,5	5 115,2
	<i>Import</i>	9 001,0	6 720,4	965,0
	Eron	5 904,4	3 066,6	5 108,4
	<i>Eksport</i>	4 719,3	1 562,1	1 750,1
	<i>Import</i>	1 185,1	1 504,5	3 358,3
	Hindiston	5 353,7	3 555,4	4 345,7
	<i>Eksport</i>	1 223,2	1 279,7	310,3
	<i>Import</i>	4 130,5	2 275,7	4 035,3

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Belarus	2 243,8	1 187,6	3 706,0
 Eksport	1 874,5	875,2	3 627,4
Import	369,3	312,4	78,7
Turkmaniston	1 256,6	1 920,9	3 665,8
 Eksport	391,5	787,4	97,6
Import	865,1	1 133,5	3 568,2
Ozarbajjon	1 929,7	1 761,2	2 780,2
 Eksport	1 929,7	1 761,2	864,4
Import	-	-	1 915,8
Koreya Respublikasi	1 348,2	923,6	2 000,4
 Eksport	19,4	4,7	0,5
Import	1 328,8	918,9	1 999,9
Avstriya	580,4	0,03	1 970,1
 Eksport	-	0,03	0,1
Import	580,4	-	1 970,0
Polsha	723,8	856,4	1 564,6
 Eksport	606,2	487,6	1 101,5
Import	117,6	368,8	463,2
Ekvador	682,1	634,2	1 391,4
 Eksport	-	-	-
Import	682,1	634,2	1 391,4
Portugaliya	-	51,5	1 287,8
 Eksport	-	51,5	1 287,8
Import	-	-	-
Italiya	630,6	5 366,5	911,0
 Eksport	-	0,6	2,2
Import	630,6	5 365,9	908,8
Latviya	91,1	157,8	763,3
 Eksport	0,1	157,7	754,3
Import	91,0	0,05	9,0



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)*



2024-yil yanvar-noyabr


2023-yil yanvar-noyabr

Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **12,1 %** ulush bilan **44 061,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Oltinsoy tumanida **2,8 %** ulush bilan **10 290,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga ko'paydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 61,9 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 139 140,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 116 790,2 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 22 350,2 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

Rossiya – 70,2



Qozog'iston – 17,0



Tojikiston – 4,4



Belarus – 2,7



Turkmaniston – 2,6



Ozarbajjon – 2,0



Qirg'iz
Respublikasi – 0,5



Ukraina – 0,4



Moldova – 0,1



Armaniston – 0,1



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (70,2 %), Qozog'iston (17,0 %), Tojikiston (4,4 %), Belarus (2,7 %), Turkmaniston (2,6 %) hamda Ozarbajjon (2,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)





**Jami tashqi savdo
aylanmasidagi ulushi**



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 125 884,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 109 982,9 ming AQSH dollari, import hajmi esa 15 901,2 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 257 taga yetdi va ular tomonidan 243 412,9 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 23,9 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, ulushi % da)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	196 412,1	243 412,9	94,8	123,9	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	102 427,3	162 268,4	90,6	158,4	52,1	66,7
Ichimliklar va tamaki	862,1	47,8	13,8 b.	5,5	0,4	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9 189,1	11 100,9	88,7	120,8	4,7	4,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	383,4	780,2	142,7	2,0 b.	0,2	0,3
Sanoat tovarlari	62 363,1	50 534,6	83,3	81,0	31,8	20,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	247,4	2 079,9	156,4	8,4 b.	0,1	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	15 102,3	8 485,1	4,0 b.	56,2	7,7	3,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	253,8	-	-	-	0,1
Xizmatlar	5 250,5	3 942,6	145,8	75,1	2,7	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	586,9	-	65,8	-	0,3	-
Boshqa tovarlar	-	3 919,6	-	-	-	1,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,4 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (66,7 %), sanoat tovarlari (20,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (4,6 %), turli xil tayyor buyumlar (3,4 %) va xizmatlar (1,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	162 268,4	158,4
Sabzavotlar va mevalar	148 033,5	175,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	13 972,5	78,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	112,7	94,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	86,9	4,1 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	52,5	120,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	10,3	-
Ichimliklar va tamaki	47,8	5,5
Tamaki va tamaki mahsulotlari	47,8	5,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 100,9	120,8
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	8 938,0	185,8
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 528,1	61,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	518,0	135,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	114,5	7,7
Tabiiy kauchuk	2,4	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	253,8	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	253,8	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	780,2	2,0 b.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	601,7	160,8
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	139,6	98,5 b.
Noorganik kimyo moddalari Birlamchi shakldagi plastmassalar	29,8	6,5 b.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	7,0	439,9 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,9	4,7 b.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,2	7,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,05	15,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	50 534,6	81,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	47 234,8	78,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	2 977,8	2,2 b.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, tayyorlangan buyumlar	226,3	58,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	62,8	89,9
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	25,8	113,5
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	6,6	8,5 b.
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,4	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2 079,9	8,4 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	1 475,7	6,9 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	200,3	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	172,3	6,8 b.
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	138,4	17,7 b.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar va ularning elektr qismlari	90,1	-
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	3,2	-
Turli xil tayyor buyumlar	8 485,1	56,2
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7 451,2	51,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	883,2	181,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	47,1	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	39,8	119,5
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	37,9	200,7 b.
Poyabzal	24,6	14,3
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	1,3	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlarga 116 790,2 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 48,0 % tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, XXR, Turkiya, Qozog'iston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2024-yil yanvar-noyabr, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	18 889,8	93 922,5	66,3	5,0 b.	4	1
Pokiston	60 431,7	51 274,8	142,2	84,8	1	2
Afg'oniston	53 848,6	36 804,3	3,4 b.	68,3	2	3
XXR	33 344,6	17 085,5	79,6	51,2	3	4
Turkiya	7 177,1	13 826,7	45,8	192,6	5	5
Qozog'iston	5 796,2	12 168,0	15,9	2,1 b.	6	6
Tojikiston	3 773,5	5 115,2	135,2	135,6	7	7
Belarus	875,2	3 627,4	46,7	4,1 b.	14	8
Eron	1 562,1	1 750,1	33,1	112,0	9	9
Portugaliya	51,5	1 287,8	-	25,0 b.	25	10
Polsha	487,6	1 101,5	80,4	2,3 b.	18	11
Ozərbayjon	1 761,2	864,4	91,3	49,1	8	12
Latviya	157,7	754,3	1466,2 b.	4,8 b.	22	13
Ukraina	431,0	577,7	137,3	134,0	19	14
Bangladesh	-	464,7	-	-	-	15
Germaniya	728,2	449,3	35,3	61,7	17	16
Irok	398,8	432,5	89,8	108,4	21	17
AQSH	127,3	319,9	161,4	2,5 b.	23	18
Hindiston	1 279,7	310,3	104,6	24,3	11	19
Qirg'iz Resp-si	946,4	221,7	12,0	23,4	12	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)*



2024-y. yanvar-noyabr

2023-yil yanvar-noyabr

Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **12,5 %** bilan **30 367,2** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Oltinsoy **2,7 %** bilan **6 578,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida 278 298,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,2 m. yoki 191 681,0 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (51,3 %), Pokiston (28,6 %), Afg'oniston (8,8 %), Qozog'iston (7,0 %), hamda Belarus (1,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 161 447,9 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 56,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 66,3 % ni tashkil etdi.









MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>18 642,4 ming AQSH dollari</p> <p>23 140,1 tonna</p> <p>32,3 b. ↑</p>	<p>Karam</p> <p>7 605,8 ming AQSH dollari</p> <p>32 980,3 tonna</p> <p>10,5 b. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>23 745,6 ming AQSH dollari</p> <p>106 745,5 tonna</p> <p>7,9 b. ↑</p>	<p>Dukkakli donli</p> <p>33 177,7 ming AQSH dollari</p> <p>15 458,4 tonna</p> <p>- 39,4 % ↓</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>862,5 ming AQSH dollari</p> <p>490,3 tonna</p> <p>- 13,8 % ↓</p>	<p>Yer yong'oq</p> <p>8 714,5 ming AQSH dollari</p> <p>4 096,6 tonna</p> <p>92,6 % ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>863,0 ming AQSH dollari</p> <p>553,3 tonna</p> <p>34,6 % ↑</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>31 009,5 ming AQSH dollari</p> <p>35 179,4 tonna</p> <p>3,0 b. ↑</p>
<p>Sabzavotlar</p> <p>24 717,8 ming AQSH dollari</p> <p>33 551,4 tonna</p> <p>21,7 % ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>8 277,5 ming AQSH dollari</p> <p>11 134,8 tonna</p> <p>7,9 b. ↑</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>2 832,6 ming AQSH dollari</p> <p>13 956,8 tonna</p> <p>4,3 b. ↑</p>	



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	163 252,7	82 760,5	51,3
 Pokiston	51 005,4	46 136,4	28,6
 Afg'oniston	18 637,5	14 141,9	8,8
 Qozog'iston	36 894,7	11 347,6	7,0
 Belarus	2 984,6	2 268,3	1,4
 Ozarbayjon	493,4	765,8	0,5
 Latviya	1 373,4	751,6	0,5
 Ukraina	693,7	574,1	0,4
 Germaniya	199,3	448,8	0,3
 Eron	263,9	319,8	0,2
 Turkiya	129,7	304,1	0,2
 AQSh	60,5	289,0	0,2
 Irok	742,8	252,7	0,2
 Boshqa davlatlar	1 567,2	1 087,4	0,7

* qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 51,3 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-noyabr oyi yakuni bo'yicha 54 685,2 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 28,7 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 28,7 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (74,6 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (13,6 %), gazlamalar (8,2 %), va trikotaj mato (0,3 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilindi.




TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)



54 685,2 (2023 y.: 76 689,1)

Jami



40 813,4 (32 911,8)

Ip kalava



7 451,2 (14 409,7)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari




4 478,1 (8 436,1)

Gazlamalar



798,6 (1,5)

Trikotaj mato



1 144,0 (20 930,0)

Boshqa mahsulotlari

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSH dollari)

		2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
	XXR	26 228,5	17 085,3	65,1
	Turkiya	5 857,5	12 043,8	2,1 b.
	Afg‘oniston	32 906,3	8 251,1	25,1
	Rossiya	7 101,3	6 787,2	95,6
	Pokiston	961,9	4 994,3	5,2 b.
	Eron	53,1	1 430,3	26,9 b.
	Portugaliya	51,5	1 287,8	25,0 b.
	Polsha	-	860,3	-
	Tojikiston	1 538,5	740,4	48,1
	Bangladesh	-	464,7	-
	Boshqa davlatlar	1 990,3	740,0	37,2




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (31,2 % – 17 085,3 ming AQSH dollari), Turkiya (22,0 % – 12 043,8 ming AQSH dollari), Afg‘oniston (15,1 % – 8 251,1 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (12,4 % – 6 787,2 ming AQSH dollari) va Pokiston (9,1 % – 4 994,3 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 3 942,6 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 24,9 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (50,3 %), transport (25,7 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (15,7 %) va safarlar (turizm) (8,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 121 672,5 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 121,7 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (63,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,9 %), hamda sanoat tovarlari (4,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (4,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



18,9 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



1,1 %

2. Ichimliklar va tamaki



1,4 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



3,2 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,3 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



4,4 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



4,6 %

7. Sanoat tovarlari



63,4 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



2,6 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,1 %

10. Xizmatlar



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22 339,7 ming AQSH dollariga ko'paydi va 121 498,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 174,2 ming AQSH dollariga yetdi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	99 949,3	121 672,5	73,4	121,7	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22 252,2	23 017,4	71,1	103,4	22,3	18,9
Ichimliklar va tamaki	280,5	1 285,4	-	4,6 b.	0,3	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 499,1	1 651,7	71,9	110,2	1,5	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 891,9	3 893,5	3,0 b.	2,1 b.	1,9	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	459,4	311,6	4,8 b.	67,8	0,5	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 632,8	5 447,5	74,1	150,0	3,6	4,4
Sanoat tovarlari	21 628,1	5 566,3	40,8	25,7	21,6	4,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	43 832,6	77 186,6	108,4	176,1	43,8	63,4
Turli xil tayyor buyumlar	3 682,2	3 138,3	104,7	85,2	3,7	2,6
Xizmatlar	790,6	174,2	4,0 b.	22,0	0,8	0,1



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23 017,4	103,4
Sabzavotlar va mevalar	10 954,6	82,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 538,5	87,5
Tirik hayvonlar	5 150,9	3,1 b.
Hayvonlar uchun ozuqalar	590,3	125,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	323,0	-
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	227,1	98,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	186,7	80,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	43,4	50,2
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	0,4	-
Ichimliklar va tamaki	1 285,4	4,6 b.
Ichimliklar	1 285,4	4,6 b.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 651,7	110,2
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1 139,3	178,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	397,8	109,8
Probka va yog'och-taxtalar	93,1	19,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	15,9	134,7
Qog'oz massasi va makulatura	5,3	-
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,2	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 893,5	2,1 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 662,6	193,6
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	311,6	67,8
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	311,6	67,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5 447,5	150,0
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3 395,7	168,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	646,0	125,6
Noorganik kimyo moddalari	438,8	143,0
Organik kimyo moddalari	374,4	2,6 b.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	230,0	187,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	135,5	161,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	80,6	81,9
O'g'itlar	75,8	24,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	70,6	191,8


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	5 566,3	25,7
Cho'yan va po'lat	3 243,2	35,9
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	942,6	12,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	564,6	45,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	411,5	14,4
Rezina buyumlari	285,9	87,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	66,6	46,5
Rangli metallar	27,7	20,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	21,3	18,0
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,8	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	77 186,6	176,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	42 887,6	2,1 b.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	18 171,9	2,0 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	4 928,5	3,4 b.
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3 111,7	37,5
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	3 040,4	72,3
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	2 476,6	89,7 b.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2 234,9	4,7 b.
Boshqa transport uskunolari	198,2	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	136,9	23,2 b.
Turli xil tayyor buyumlar	3 138,3	85,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 062,9	89,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	922,9	2,7 b.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	580,4	31,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	247,7	124,5 b.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	176,5	11,7 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	111,1	34,7
Poyabzal	19,4	20,5 b.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	17,3	-



2024-yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 18,4 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr ming AQSH dollari, ulushi, % da)




2024-yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimiz 47 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, XXR, Germaniya, Qozog'iston, Pokiston, Hindiston va Rossiya) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2024-yil yanvar-noyabr, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiya	8 793,4	34 173,2	153,0	3,9 b.	4	1
XXR	30 358,6	24 835,3	101,3	81,8	1	2
Germaniya	1 748,3	12 131,7	101,6	6,9 b.	10	3
Qozog'iston	13 914,5	11 459,2	125,2	82,4	2	4
Pokiston	13 396,4	6 355,0	63,2	47,4	3	5
Hindiston	2 275,7	4 035,3	55,1	177,3	8	6
Rossiya	5 988,9	3 822,6	14,8	63,8	6	7
Turkmaniston	1 133,5	3 568,2	131,0	3,1 b.	12	8
Afg'oniston	736,7	3 458,6	112,0	4,7 b.	15	9
Eron	1 504,5	3 358,3	127,0	2,2 b.	11	10
Koreya Respublikasi	918,9	1 999,9	69,2	2,2 b.	14	11
Avstriya	-	1 970,0	-	-	-	12
Ozarbajjon	-	1 915,8	-	-	-	13
Ekvador	634,2	1 391,4	93,0	2,2 b.	16	14
Tojikiston	6 720,4	965,0	74,7	14,4	5	15
Italiya	5 365,9	908,8	8,5 b.	16,9	7	16
Estoniya	223,1	741,8	93,4	3,3 b.	22	17
Qirg'iz Respublikasi	104,4	509,2	9,0	4,9 b.	27	18
Shveysariya	129,0	466,4	49,1	3,6 b.	25	19
Polsha	368,8	463,2	3,1 b.	125,6	20	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024-yil yanvar-noyabr, ming AQSH doll.)*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 18,2 % bilan 22 179,6 ming AQSH dollarini, eng quyi, Qiziriq 0,4 % bilan 508,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 5 566,3 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74,3 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-noyabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (3 243,2 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (942,6 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (564,6 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (411,5 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (285,9 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (66,6 ming AQSH dollari), rangli metallar (27,7 ming AQSH dollari), probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (21,3 ming AQSH dollari) va teri, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar (2,8 ming AQSH dollari) tashkil topgan.